

TURKIY XALQLAR SHE'RIYATIDA ONA OBRAZINING BADIY IFODASI

To'liboyeva G.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Adabiyotni inson ruhiyatining murabbiysi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Uning vazifasi kitobxonni ma'naviy oziqlantirish bilan birga, uning ijobiy hislatlarini tarbiyalash, ruhiy barkamollik sari yetaklashdir. Bu vazifani esa turli obrazlar orqali insoniyatga xos xususiyatlarni ba'zan boricha, ba'zan esa majoziy usullar ifodalash orqali bajaradi. Shu bilan birga insoniy his-tuyg'ularni ham bir-biridan serjilo so'zlarni ipga terish orqali bayon qiladi. Xususan yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlarga xos bo'lgan insoniy hislar turli usullarda ifoda qilinsa-da bir xil ma'no tashiydi. Ana shunday hislardan biri bizning dunyoni ko'rishimiz hamda tanishimiz sababkori bo'lgan Ona va farzand orasidagi beg'ubor tuyg'ular farqli tillarda talqin qilinsa ham o'quvchida ayni hissiyotlarni uyg'otadi. "Borliqni jonli his etish va uni so'zda ifodalash shoirni yaratadi", deya ta'rif beradi Gyote shoir va she'riyatning mohiyati haqida fikr yuritib [1,20]. Turkiy xalqlar she'riyatida ona obrazi eng muqaddas, eng ta'sirchan va eng barqaror badiiy timsollardan biri sanaladi. Ushbu obraz faqat shaxsiy mehr va muhabbat ifodasi emas, balki xalqning ma'naviy qadriyatlari, tarixiy xotirasi hamda milliy ruhining ramzi sifatida talqin etiladi. Ushbu maqolada bir-biriga qon-qardosh uch xil millat she'riyatida Ona obrazi qanday talqin qilinganligi tahlil qilinadi.

O'zbek she'riyatida ona timsoli chuqur lirizm hamda samimiyat bilan tasvirlangan. Shoirilar ushbu obraz orqali farqli fikrlar va g'oyalarni ilgari suradilar. Muhammad Yusuf she'rlarida ona – mehr va sog'inch manbayi, farzand qalbining abadiy suyanchi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir uchun ona nafaqat hayot bergan zot, balki Vatanning o'ziga xos timsoli bo'lsa xalqimizning ardoqli shoiri Abdulla Oripov ijodida esa ona obrazi falsafiy teranlik kasb etadi. Shoirning "Ona" nomli she'ri ushbu fikrimiz dalilidir:

Ko'kda yulduz uchsa nogahon
Bitdi derlar qaysi bir taqdir.
Bunday g'amni ko'tarmak oson,
Bu ehtimol bizlar haqqadir.

Ba'zi tunlar ko'kka tikib ko'z
Eslab deyman onamni shu on:
Ona ketsa, yulduz-ku, yulduz,
Qulab tushsa arziydi osmon. [3,128]

She'ring dastlabki misralarida xalq orasidagi qadimiy tasavvur eslatiladi, ya'ni "yulduz uchishi" – kimningdir hayoti yakunlanganining ramziy ifodasi. Shoir bu e'tiqodni poetik vosita sifatida qo'llab, inson taqdiri va osmon hodisasi o'rtasida majoziy bog'liqlik yaratadi. Keyingi misralarda esa tuyg'u yanada chuqurlashib, Ona vafoti oddiy bir "yulduz"ning so'nishi emas, balki butun osmon qulab tushishiga teng fojea sifatida talqin qilinadi. Shoir nazarida ona – olam tayanchi, ruhiy osmoni hisoblanadi. Shuning uchun uning yo'qolishi inson hayotidagi eng muthish yo'qotish bo'lib, butun olamining zimistonga aylanishi bilan barobardir.

Shoirning "Onamga xat" sarlavhali lirik satrlarida ham nihoyatda teran ma'noga ega his-tuyg'ular tarannumining ifodasini ko'rish mumkin. She'ring markazida – sog'inch va ichki iztirob turadi. Lirik qahramon onasiga qaytishni istaydi, chunki uning yuragida "ismsiz dardlar" bor. Shoir "ismsiz" so'zi dardning aniq sababini emas, balki umumiy ruhiy siqilishni anglatish maqsadida qo'llamoqda. Ruhiy iztirob aniq voqeadan emas, ruhiy bo'shliqdan kelib chiqqanligiga ishora qilmoqda.

Qaytgim keldi, onam, yoningga,
Yuragimda ismsiz dardlar.
Sovuq xonam, soat chiq-chiqi,
Tashqarida hazonrez bog'lar,

Yomg'irning jim honish qilishi...
Barisi ham nechundir bu dam
Tushirmoqda seni yodimga...
qaytgim keldi, onam, yoningga. [3,37]

Lirik qahramonning sovuq xonada o'tirishi, soatning "chiq-chiqi", tashqaridagi hazonrez bog'lar va yomg'irning jim honishi ruhiy manzara bilan uyg'unlashib, psixologik parallelizmni yuzaga keltiradi. Tabiat va muhit tasviri qahramon kayfiyatini yanada chuqurlashtiradi, tashqi sovuqlik ichki bo'shliqni aks ettiradi.

Yuragimni ochib gapirsam,
Kam-kam bo'lar menda bunday hol.

Shodmon yursam, mening yodimga
Sen tushmaysan, rostdan, onajon. [3,37]

Ona ushbu she'rda shunchaki yaqin inson emas, balki ruhiy muvozanat va mehr markazi sifatida talqin qilinmoqda. Qahramon shodmon paytida onasini kam eslashini tan oladi, ammo dardli damlarda unga intiladi. Bu e'tirof inson tabiatidagi nozik haqiqatni ochadi: quvonch insonni chalg'itishi mumkin ammo iztirob uni mehning haqiqiy manbasiga qaytaradi. Inson atrofidagi hech kim u ulug' va mo'tabar siymoning o'rnini bosa olmasligini kitobxonga anglatishga harakat qilmoqda.

Ammo hayot o'zi bilaman,
Solar seni yodimga bot-bot,

Ya'ni, boshimizni doim ham
Ona bo'lib silamas hayot. [3,38]

Shoir lirik satrlar yakunida hayotning hamisha ham bir maromda davom etmasligini hamisha dardkash va mehribon insonga ehtiyoj sezishini qalamga oladi. She'ring ohangi sokin, ammo ichki drammatizmga boy. Oddiy leksik vositalar yordamida chuqur falsafiy ma'no yaratilgan. Ona timsoli mehr, sabr va ruhiy boshpananing ramzi sifatida namoyon bo'lib, sog'inch shaxsiy kechinmadan umuminsoniy tuyg'u darajasiga ko'tarilgan.

Qoraqalpoq xalqining atoqli shoiri Ibrayim Yusupov lirikasida ham Ona obrazining badiiy talqini mazmun jihatdan zamondoshi A.Oripov she'rlarini esga soladi. Ijodkorning "Ona" she'rda ona timsolini fidoyilik, hayotbaxshlik va muqaddaslik ramzi sifatida ifodalaydi. Unda lirik qahramon o'z mavjudligini onaning hayotiy maqsadi bilan bog'laydi va bu orqali ona mehning cheksizligini poetik obrazlar vositasida ochib berishga urinadi.

Sel burshaqtan qorgap oz palapanin,
Kekilik qus olipni shiqpay uyadan...
Men seni shadligin, demin, dawramin,

Iske asqan armaninman, anajan.
Jarlansan meni jaratw ushin,
Dunyağa tirishilik taratiw ushin.

Men dep uyqı kórmey tań atıw ushın

Dúnyaǵa kelgenseń óziń, anajan. [4,117]

She'ring dastlabki misralaridagi kaklik qush obrazi ramziy ma'noga ega. Sel va do'l (burshaq)dan polaponini asrash uchun uyasidan chiqmay halok bo'lgan qush tasviri onaning o'z farzandi uchun jonini ham ayamaydigan fidoyiligini anglatadi. Bu kuchli metafora orqali ona tabiatning eng nozik, ammo eng jasur mavjudoti sifatida tasvirlanadi. Qushning uyadan chiqmay jon berishi – himoya va mehrning oliy nuqtasi sifatida o'z ifodasini topgan. Keyingi misralarda lirik qahramon o'zini onaning shodligi, nafasi va amalga oshgan orzusi sifatida talqin qiladi. Lirik satrlarda farzand shunchaki zurriyod emas, balki ona hayotining mazmuni ekanligi ta'kidlanadi.

Men ketsem ómirdiń quwıp qızıǵın,
Sen jatarsań joytılganday júzigiń.
Kırpigiń ushında oynap uzın tın,
Uyqıńdı ırlawshı mendur, anajan.

Dúzde júrsem oylap qatın, balamdı,
Bazarlıqtan umıtarman anamdı,
Basqalar keshirmes meniń gúnamdı,
Tek sen keshireseń bárin, anajan. [4,117]

She'riy satrlarda ona timsoli yanada chuqurroq psixologik va axloqiy qatlamda ochiladi. Lirik qahramon o'z hayotining shiddati va kundalik tashvishlari orasida onaning iztirobini anglay boshlaydi. Farzand hayot zavqi bilan bo'lib onasini unutishini ifoda qilishi A.Oripovning "Onamga xat" she'rini esga soladi.

Keyingi misralarda hayot haqiqatini yanada ochiqroq ko'rsatadi: inson ulg'ayib, o'z oilasi tashvishiga sho'ng'iydi va ba'zan onani unutadi. "Bazarlıqtan umıtarman anamdı" deya mazmunni yanada tabiiylashtiradi. Bu oddiy, ammo ta'sirli obraz orqali farzandning beparvoligi ochib beriladi. Eng kuchli axloqiy xulosa esa so'nggi misralarda mujassam, ya'ni ona cheksiz kechirim va rahm-shafqat timsoli sifatida talqin etiladi. Jamiyat hukm qilishi mumkin, boshqalar aybni unutmashligi mumkin, ammo ona mehrida kechirim mutlaqdir degan fikrni ilgari suradi.

Turk adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Mehmet Akif Ersoy she'riyatida ona obrazi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Shoir jamiyat kelajagini belgilovchi avlod tarbiyasini eng avvalo onaning zimmasiga yuklaydi va shu bois onani millatning ma'naviy tayanchi sifatida tasavvur etadi. Uning nazarida sog'lom va ma'rifatli jamiyatni shakllantirish uchun onaning ma'naviy yetukligi, axloqiy pokligi va tarbiyaviy salohiyati muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan ayol obrazi ko'pincha onalik timsoli orqali talqin qilinadi va onalik fazilatları yuksak qadrlanadi.

Shoirning "Selma", "Berlin xotiralari", "Said Posho Imom", "Kufa", "Tavern", "Qo'shnichilik qahvaxonasi", "Köse Imom" hamda "Hüsran-ı Mübin" kabi asarlarida ona va onalik masalasi turli ijtimoiy vaziyatlar fonida ochib beriladi. Mazkur asarlarda onaning oilaviy hayotdagi o'rni, farzand tarbiyasidagi mas'uliyati, mehr-shafqati va fidoyiligi badiiy umumlashtirish asosida tasvirlanadi. Shu bilan birga, farzandini yo'qotgan onalarning ruhiy iztiroblari, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va ma'naviy inqiroz tufayli azob chekayotgan ayollarning kechinmalari ham chuqur dramatism bilan ifodalanadi.

Başında annesi -mâtem tecessüm etmiş de
Kadın kıyâfeti almış gibi- durur mebhût;
Yanında komşu kadınlar hurûşa âmâde ,
Eğerçi ortada dönmekte bir mehîb sükût.
Girince ben odadan hepsi kalktılar ayağa,
Kızıyla annesi mihliydılar fakat yatağa! [5,43]

Ushbu lirik satrlarda shoir qizining dardiga davo topolmagach u bilan birga o'lishga ham tayyor bo'lgan mushfiq ona iztiroblarini his qilishimiz mumkin. Bu yorug' olamda inson uchun o'limdan ham qaytmaydigan yaqinimiz faqat onamiz ekanligini yana bir bor eslatmoqda. Mehmet Akif Ersoy she'riyatida ona obrazi nafaqat oilaviy muhitning markaziy timsoli, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida talqin qilinadi. Shoirning estetik va ijtimoiy qarashlarida onaning ma'rifati va mas'uliyati millat kelajagini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, Turkiy xalqlar she'riyatida ona obrazi umumiy tipologik xususiyatlarga ega bo'lsa-da, har bir xalqning tarixiy tajribasi va mentalitetiga ko'ra o'ziga xos talqin qilinadi. Ona – mehr va muhabbat manbai, sabr va matonat timsoli, Vatan ramzi hamda milliy qadriyatlarning asosi sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, ona obrazi turkiy she'riyatning g'oyaviy-estetik tizimida markaziy o'rin egallaydi

ADABIYOTLAR

1. Ekkerman Y. Gyote bilan gurunglar. Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akadernashr, 2018.
3. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. -1-жилд.
4. Юсупов И. Таңламалы шығармалары. Уш томлык. -Нөкис: Билим, 2018. -II том
5. Mehmet Akif Ersoy. Safahat. Haz. M. Ertuğrul Düzdağ. İstanbul: Çağrı Yayınları, 2005.
6. Zokirova Z. She'riyatda poetik obrazning badiiy-estetik vazifasi// "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022.
7. <https://cdn.tbmm.gov.tr/TbmmWeb/Yayinlar/Dosya/a211a41b-6ebd-4b3b-bbd4-a69347fe62cd.pdf>

Turkiy xalqlar poeziyasida ana obraziniń kórkem súwreti.

Rezyume. Bul maqalada ózbek, qaraqalpaq hám túrk poeziyasidaǵı ulıwma obrazlar analizlengen. Bir-birine tuwısqan xalıqlar dóretilshileriniń dóretpelerindeǵı kórkem jaqınlıq Ana obrazı misalında ashıp berilgen. Abdulla Oripov, Ibrayım Yusupov, Mehmet Akif Ersoyǵıń qosıqları arqalı obrazlardaǵı ulıwmalıq hám ózgeshelik tárepleri izertlengen.

Gilt sózler: qaraqalpaq lirikası, túrk ádebiyatı, obraz, kórkemlik, milliy ózgeshelik.

Artistic expression of the image of the mother in the poetry of turkic peoples.

Summary. This article analyzes common images in Uzbek, Karakalpak, and Turkish poetry. The artistic proximity in the works of creators of fraternal peoples is revealed on the example of the image of Mother. Through the poems of Abdulla Aripov, Ibrayim Yusupov, Mehmet Akif Ersoy, the commonalities and differences in the images are investigated.

Key words: Karakalpak lyrics, Turkish literature, image, artistry, nationality.

Художественное выражение образа матери в поэзии тюркских народов.

Резюме. В данной статье анализируются общие образы в узбекской, каракалпакской и турецкой поэзии. Художественная близость в творчестве творцов братских народов раскрывается на примере образа Матери. С помощью стихотворений Абдуллы Арипова, Ибраима Юсупова, Мехмета Акифа Эрсоя исследованы общие черты и различия в образах.

Ключевые слова: каракалпакская лирика, турецкая литература, образ, художественность, национальность.